

O‘ZBEKISTONING SHARQIY YEVROPA DAVLATLARI BILAN IQTISODIY VA MADANIY GUMANITAR HAMKORLIGI TARIXI (1960- 2024-YILLAR.)

Rahmatullayev Zohid Shuhrat o‘g‘li

Oriental universiteti

Tarix fakulteti 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston Respublikasi o‘z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Respublikaning zamonaviy tashqi siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o‘zgarayotgan vaziyat, hamda mamlakatning ichidagi keng ko‘lamli o‘zgarishlarga asoslanib shakllanadi. O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi va Yevropa davlatlari bilan har taraflama manfaatli hamkorlikka muhim ahamiyat beradi. Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlikni asosiy sohalari savdosotiqni rivojlantirish, investitiya va moliya, zamonaviy texnologiyalar transferi, ilm-fan, texnika, ta’lim, ekologiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat va mintaqaviy xavfsizlik kabilar hisoblanadi. O‘zbekiston asosiy e’tiborini Yevropaning ilg‘or davlatlari, xususan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Latviya va boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni yanada yuqori darajaga chiqarishga alohida e’tibor beradi.

Kalit so‘zlar: *Yevropa Ittifoqi, Yevropa davlatlari, rivojlanish, siyosat, hamkorlik, do‘stona munosabatlar, hamkorlik, xalqaro maydon, sheriklik, shartnoma, qo‘shma organ, import, eksport, investitsiya.*

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizdagi islohotlar, eng avvalo, dunyoda, shu jumladan, jahon iqtisodiyoti konyunkturasida yuz berayotgan turli o‘zgarishlarga mos holda amalga oshirilmoqda. Tanlab olgan yo‘limiz global inqirozdan keyin jahon iqtisodiyoti rivojlanish sur‘atlari pasaygan bir sharoitda o‘zining barqarorligi va hayotiyiligini ko‘rsatayotir. Mamlakatimizda keyingi yillarda tashqi siyosat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, mamlakatimizning xalqaro maydondagi salohiyatini kengaytirishga va xorijiy davlatlar bilan keng qamrovli hamda o‘zaro manfaatli aloqalarini rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda. So‘nggi yillarda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekiston hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va boshqa sohalarida muhim va dolzarb ulkan islohot hamda o‘zgarishlar izchil amalga oshirilmoqda. 2020-yilda pandemiya oqibatida yuzaga kelgan xalqaro miqyosdagi iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklar, ayrim

mintaqalardagi umumiy ahvol va davlatlararo munosabatlarning keskinlashishi tashqi siyosatimizdan yangi maqsad va yondashuvlarni talab etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillicini izchil ichki islohotlar va yangilangan tashqi siyosat bilan kutib olmoqda. Mamlakat ichki hayotida kuzatilayotgan ochiqlik, innovatsiya va yangilanishlar, shuningdek, iqtisodiy liberallashtirish, bozorni rivojlantirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, raqamlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, ta’lim va ma’rifat, fuqarolar faolligi va inson huquqlari himoyasiga e’tibor – bularning barchasi, shubhasiz, mamlakatimizning tashqi siyosatiga ta’sir o‘tkazmoqda. Aksariyat xalqaro ekspertlar va xorijiy siyosatchilar fikricha, bugun O‘zbekiston o‘zining misli ko‘rilmagan ochiqligi va jadalligi bilan ajralib turgan izchil, aniq va konstruktiv siyosat yuritmoqda. Mamlakatimizning iqtisodiy ochiqligi hamda investitsiyalar va biznes uchun jozibadorligi, barcha muammoli masalalarni yakdillik, o‘zaro hurmat va hamjihatlik asosida hal etishga intilish, dunyoning yetakchi davlatlari va boshqa mamlakatlari bilan muvozanatli va o‘zaro manfaatli aloqalar yuritish, siyosiy ishonch va xalqaro huquqqa rioya etilishi asosidagi o‘zaro hamkorlikka intilish – bizning xorijiy sheriklarimiz O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan tashqi siyosiy kursni aynan ana shunday tavsiflamoqda. Ekspertlarning tasdiqlashicha, O‘zbekistonda kuzatilayotgan makroiqtisodiy barqarorlik tashqi salbiy ta’sirlarga samarali qarshi turish imkonini berayapti. Mamlakatimiz keyingi yillarda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish, xorijiy davlatlar bilan do‘stona hamda o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida muhim natijalarga erishmoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, Yevropaning bir qator davlatlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik sezilarli darajada mustahkamlandi. BMT, YEXHT, SHHT, IHT va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan sheriklik munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab Yevropa bilan hamkorlikni o‘z tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi. O‘zbekiston va Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama, shuningdek 1999-yilning 1-iyulidan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi hamda unga a’zo davlatlar o‘rtasidagi Sherikchilik va Hamkorlik bitimi doirasida rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi va Yevropa davlatlari bilan hamkorlikni o‘z tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri deb biladi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan barcha jabhalardagi munosabatlari jadal sur’atlarda rivojlanib borishi natijasida o‘zaro manfaatli hamkorlikning yangi davri boshlandi. 2019-yil may oyida Yevropa Kengashi rahbari Donald Tusk ilk marotaba O‘zbekistonga tashrif buyurdi. 2020-yilning aprel

oyida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va Yevropa kengashi prezidenti Sharl Mishel o'rtasida telefon muloqoti o'tkazildi. Muzokaralar chog'ida Yevropa tomoni iqtisodiyot, savdo, innovatsiya va investitsiya, transport, ilm-fan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor ekanini bildirdi.

Harakatlar strategiyasi doirasida ko'p qirrali islohotlar boshlangan paytdan buyon yevropalik hamkorlarimiz jamiyatni demokratlashtirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, fuqarolik jamiyati, so'z erkinligi va inson huquqlari sohasidagi chuqur o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlab kelmoqdalar. O'zbekistonning majburiy mehnatga barham berish, sud islohotlari, qiynoqlarning oldini olish va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan bog'liq muammolarni hal etish borasidagi yutuqlarini Yevropa tomoni alohida ta'kidlaydi. "O'zbekiston-YI" Hamkorlik kengashi, Hamkorlik qo'mitasi, Iqtisodiyot, savdo va investitsiyalar bo'yicha kichik qo'mita, Parlament hamkorligi qo'mitasi hamda Adliya, ichki ishlar va boshqa masalalar bo'yicha kichik qo'mita, Taraqqiyot bo'yicha kichik qo'mita kabi 6 ta qo'shma organ tashkil etilgan. Har yili Tashqi ishlar vaziri boshchiligidagi O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasi Bryussel shahrida O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi Hamkorlik kengashining yig'ilishida ishtirok etib kelmoqda. Bryussel shahriga oliy darajadagi tashriflar Yevropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasi bilan turli sohalaridagi o'zaro manfaatli hamkorlikni teng huquqlilik va o'zaro sheriklik asosida kengaytirishga bo'lgan qiziqishini namoyon etdi. 2019-yil 31-may – 2-iyun kunlari Yevropa kengashi Prezidenti Donald Tusk O'zbekistonda bo'ldi. 2020-yilning fevralida Buyuk Britaniya parlamentida Konservativlar partiyasi deputati E.Bridjen rahbarligida O'zbekiston bo'yicha yangi Umumpartiya parlament guruhi tashkil etildi. O'zbekiston-Britaniya Savdo va sanoat kengashi savdo-iqtisodiy munosabatlarning samarali mexanizmi bo'lib, uning 23-majlisi Toshkentda 2016-yil 16- 18-noyabr kunlari bo'lib o'tdi. O'zbekiston-Fransiya munosabatlari do'stona va o'zaro hurmat tamoyillari asosida shakllangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 8-9-oktabr kunlari Fransiya Respublikasi Prezidentining taklifiga binoan Fransiyada rasmiy tashrif bilan bo'ldi. Tashrif natijasida 11 ta ikki tomonlama hujjat, shuningdek, 3,4 mlrd so'mlik shartnomalar imzolandi. 2019-yil 30-sentabr kuni Tashqi ishlar vaziri A.Kamilov Fransiya Respublikasining sobiq Prezidenti J.Shirakning vafoti munosabati bilan motam tadbirlarida ishtirok etish uchun Fransiyaga tashrif buyurdi. Tashrif chog'ida Fransiya Tashqi ishlar vazirligi Davlat kotibi Jan-B.Lemuan bilan muzokaralar o'tkazildi. Hozirgi kunda 1260 ta maktab, kollej va litseylarda, shuningdek, respublikamizning 8 ta oily o'quv yurtida 280 mingdan ortiq o'quvchi fransuz tilini o'rganmoqda. Samarqand va Lion, Buxoro va Ruey-Makmezon shaharlari o'rtasida birodarlik aloqalari o'rnatilgan. 2019-yilning aprel oyida Ruey-Malmezon Markaziy bog'ida "O'zbekiston bog'i" ochilib, uning hududida bir vaqtning

o‘zida buyuk alloma va qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino haykali o‘rnatildi. Prezidentning 2018-yil 4- oktabrdagi PF-5551-sonli farmoni bilan Fransiya fuqarolarining O‘zbekiston hududiga kirishi uchun 30 kunlik vizasiz rejim o‘rnatildi.

XULOSA

Mamlakatimiz Yevropa bilan ikki va ko‘p tomonlama istiqbolli munosabatlarni davom ettiradi. Savdo-sotiq, investitsiya va moliya, yuqori texnologiyalar transferi, ilmfan, texnika, ta‘lim, ekologiya, sog‘liqni saqlash va madaniyat sohalaridagi hamkorlik, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash O‘zbekiston — Yevropa munosabatlarining asosiy ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi. O‘zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish bobida asrlarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston o‘zining tinchliksevar, yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egalladi, uning mavqeyi yildan— yilga mustahkamlanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. F. Shamsutdinova, F.Sh. Shamsutdinov – “Chet el mamlakatlar soliq tizimi” – 2011
2. A. Smith – “An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations” – 1776
3. O. Olimjonov - “Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida soliq siyosati” – 19924.
4. Данные Статкомитета Республики Узбекистан.
5. Акрамов Э. Турецкая модель социально-экономического развития. // Экономика и статистика, -Ташкент, 1993, -№4.
6. www.mfer.uz - O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining rasmiy sayti.